



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 17-fevral

VI-57-14-6-91-K/24

Namangan shahar

2023-yil yakuni bilan Namangan shahar mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarining yillik ijrosi haqida

Namangan shahar bo'yicha Davlat budjeti daromadlari (*mahalliy*) 2023-yil **yillik** prognoz ko'rsatkichlari **520,2 mlrd. so'm** miqdorida belgilangan bo'lib, haqiqatda **546,6 mlrd. so'mga** yoki **105,0 foizga** bajarildi, natijada, budjetga qo'shimcha ravishda **26,3 mlrd. so'm** mablag'lar tushumi ta'minlandi.

Namangan shahar bo'yicha 2023-yil **IV-chorak** uchun budjet daromadlari prognozi ko'rsatkichlari **132,7 mlrd. so'm** miqdorida belgilangan bo'lib, haqiqatda **151,5 mlrd. so'm** yoki **114,0 foizga** natijada **18,7 mlrd. so'mga** ortig'i bilan bajarildi.

Belgilangan prognoz ko'rsatkichlarining bajarilmasligi o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror, Farmoyishlari va viloyatga tashrif davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilish bayonlarida ko'zda tutilgan tadbirlarga hamda Davlat dasturlari, Hukumat bayonnomalari bilan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Namangan shahar mahalliy budjeti xarajatlarining 2023-yil **yillik** aniqlangan rejasি **984,9 mlrd. so'm** etib belgilangan bo'lib, mahalliy budjet xarajatlari **989,1 mlrd. so'm** ijro etildi.

Xususan, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari uchun aniqlangan reja ko'rsatkichlari **744,8 mlrd. so'mga** belgilangan bo'lib, haqiqatda **738,9 mlrd. so'm** yoki **99,0 foizga** moliyalashtirildi. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarning jami xarajatlardagi ulushi **74,7 foizni** tashkil etdi.

Jumladan,

- xalq ta'limi sohasini **33,0 mlrd. so'mga** (102,0%);
- maktabgacha ta'lim sohasini **54,4 mlrd. so'mga** (99,0%);
- sog'lijni saqlash sohasi bo'yicha **270,2 mlrd. so'mga** (98,0%);
- madaniyat sohasi bo'yicha **3,9 mlrd. so'mga** (128,0%);
- sport sohasi bo'yicha **20,5 mlrd. so'mga** (100,0%);
- ijtimoiy nafaqalar **354,6 mlrd. so'm** (100,0%)ga moliyalashtirilishi ta'minlandi.

Shuningdek,

- iqtisodiyot xarajatlari sohasiga **92,6 mlrd. so'm** (105,0%);

- davlat boshqaruvi va o‘zini o‘zi boshqarish organlari xarajatlari **54,8 mlrd. so‘m** (107,0%);

- fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘lari **47,0 mlrd. so‘m** (100 %);

- boshqa xarajatlar **38,4 mlrd. so‘m** yoki **102,0%**ga ijro etildi.

Mahalliy budjet ijrosini ta’minlash, budjet mablag‘laridan maqsadli, samarali foydalanishda:

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta’minlash orqali jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoniga muvofiq, mahalliy budjet mablag‘larining sarfi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar tomonidan rasmiy veb-saytlariga ma’lumotlar joylashtirish bo‘yicha yetarli darajada ish tashkil etilmayotganligi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 13-dekabrdagi PF-5283-son Farmoniga muvofiq, Namangan shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining shahar mahalliy budgeti 2023-yil yakuni bilan ijrosi haqidagi hisoboti eshitilib “Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 27-moddasiga asosan, xalq deputatlari Namangan shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Namangan shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining shahar mahalliy budgeti 2023-yil yakuni bilan shahar mahalliy budgeti daromadlari va xarajatlari ijrosi 1 va 2- ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Namangan shahar hokimligi, hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning e’tibori budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash zarurligiga qaratilsin.

3. Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarga ma’lumotlarni belgilangan tartibda joylashtirib borilishi ta’minlasinlar.

4. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi, ijtimoiy soha tarmoq boshqarmalari bilan birgalikda ijtimoiy soha muassasalari uchun ajratilgan mablag‘larni to‘liq moliyalashtirilishi, jumladan, muassasalarning kuz-qish mavsumida barqaror ishslashga tayyorlash tadbirlari uchun ko‘zda tutilgan mablag‘larni to‘liq o‘zlashtirilishi va moliyalashtirilishini ta’minlasin hamda ijrosini qat’iy nazoratga olsin.

5. Shahar soliq inspeksiyasi (N.Alimov)ga:

budjet daromadlari prognoz rejasini so‘zsiz oshirib bajarish;

budjet daromadlari tushumini uzluksiz bir maromda undirilishi ta’minlash;

mahalliy budjetga qo'shimcha daromadlar tushumini ta'minlash, soliq yig'uvchanligini oshirish hamda boqimanda qarzdorliklarni keskin kamaytirish yuzasidan zarur choralarni ko'rish vazifalari topshirilsin.

6. Namangan shahar hokimligining axborot xizmati (R.Mamadaliyev)ga Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta'minlash orqali jamoatchilik nazoratini takomillashtirish maqsadida mazkur qarorni shahar hokimligining rasmiy saytiga joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

7. Shahar iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Mo'minov) hamda shahar soliq inspeksiyasi (N.Alimov) Xalq deputatlari shahar Kengashiga mahalliy budgetning ijrosi to'g'risida har chorakda hisobot berib borish tizimining davomiyligini ta'minlasin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining "Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi"ga topshirilsin.

Kengash raisi



OTAXODJAYEV
ANVAR
XOJAXANOVICH

Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining
 2024-yil 17-fevraldag'i
 VI-57-14-6-91-K/24 -son qaroriga
 1-ilova

2023-yil Namangan shahar mahalliy budjeti yillik daromadlari ijrosi to‘g‘risida
HISOBOT

mln. So'm

T/ p	Daromad turlari	Yillik				shundan IV-chorak			
		reja	ijro	bajarilishi		reja	ijro	bajarilishi	
				farqi	foizda			farqi	foizda
	JAMI	520 235	546 623	26 387	105%	132 796	151 499	18 702	114%
1	Aylanmadan soliq	44 774	36 961	-7 812	83%	14 974	10 196	-4 777	68%
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	247 302	256 318	9 015	104%	60 043	70 216	10 173	117%
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan	12 885	13 096	211	102%	2 582	3 941	1 359	153%

	daromad solig‘i								
4	Aksiz solig‘i oxirgi iste’molchiga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi	32 417	25 978	-6 439	80%	15 115	7 541	-7 574	50%
4	Yuridik shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliq	39 425	54 127	14 702	137%	7 756	13 216	5 460	170%
5	Jismoniy shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliq	23 216	24 382	1 166	105%	5 455	8 930	3 475	164%
6	Yuridik shaxslarning yer solig‘i	44 333	45 123	791	102%	14 650	12 329	-2 321	84%
7	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	27 773	39 162	11 389	141%	4 653	13 585	8 932	292%
8	yagona yer solig‘i	0	0	0	0%	0	0	0	0%
9	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda)	290	197	-93	68%	104	94	-10	91%

	materiallari)								
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	8 945	7 120	-1 825	80%	2 133	1 201	-932	56%
11	Mahalliy yig‘imlar	35 995	39 079	3 085	109%	5 318	10 161	4 843	191%
12	Boshqa tushumlar	2 881	5 080	2 198	176%	14	89	75	628%

Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining
 2024-yil 17-fevraldag'i
 VI-57-14-6-91-K/24 -son qaroriga
 2-ilova

2023-yil Namangan shahar mahalliy budjeti yillik xarajatlari ijrosi to‘g‘risida
HISOBOT

T/ R	Xarajatlar nomi	Aniqlangan reja	Haqiqatda ijro	Bajarilishi	
				Farqi	%
	XARAJATLAR-jami	984 929	989 141	4 211	100%
I.	Ijtimoiy soha xarajatlari	744 794	738 923	-5 871	99%
	<i>shu jumladan:</i>				
	Maktabgacha ta’lim	55 198	54 434	-764	99%
	Umumta’lim maktablari	32 453	33 001	548	102%
	Sog‘liqni saqlash	275 798	270 257	-5 541	98%
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	700	675	-24	97%
	Madaniyat va ommaviy axborot vositalari	3 098	3 962	864	128%
	Sport	20 488	20 507	19	100%
	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	355 591	354 611	-980	100%
	Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga turarjoy sotib olish xarajatlari	470	470	0	100%

	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	0	0	0	0%
	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	998	1 005	7	101%
II.	Iqtisodiyotga xarajatlar	88 314	92 594	4 280	105%
	<i>shu jumladan:</i>				
	Obodonlashtirish	79 078	83 414	4 336	105%
	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarini ta'mirlash xarajatlari	7 551	7 497	-54	99%
	Veterinariya qo'mitasi	1 685	1 684	-1	100%
III.	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	0	555	555	0%
IV.	Davlat boshqaruva organlarini saqlash	51 132	54 799	3 667	107%
	<i>shu jumladan:</i>				
	Davlat hokimiyat organlari	51 132	54 799	3 667	107%
	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash	8 656	8 630	-26	100%
	Zaxira jamg'armasi	8 270	8 189	-80	99%
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'lari	46 214	47 056	842	102%
V.	Boshqa xarajatlar	37 549	38 394	845	102%
	<i>shu jumladan:</i>				
	Mahalliy budgetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar			0	0%
	Boshqa xarajatlar	342	2 453	2 111	717%

	DXSH asosida ijtimoiy soha obyektlari isitish tizimini modernizatsiya qilish	26 467	24 156		
	Budgetdan tashqari boshqa jamg‘armalarga beriladigan mablag‘lar	1 490	1 692	203	114%
	Yoshlar daftariga kiritilgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	2 435	2 856	421	117%
	Ayollar daftariga kiritilgan ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	2 435	2 856	421	117%
	Advokatlar xizmati	880	880	0	100%
	Obod qishloq va Obod mahalla jamg‘armasiga ajratiladigan mablag‘lar	3 500	3 500	0	100%